



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 11 - yanvar

8-10-0-Q/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Nurafshon shahar hokimining 2018-yil 25-maydagi 266-sonli hamda 2019-yil 16-sentabrdagi 1011-sonli qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5005-sonli Farmoni hamda 2019-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4736-sonli Qarori ijrosini ta’minlash, Nurafshon shahar hokimligining 2022-yil 5-dekabrdagi 1/1-383-sonli xatini inobatga olib hamda taqdim etilgan boshqa hujjatlarni o‘rganib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Nurafshon shahar hokimligining 2022-yil 5-dekabrdagi 1/1-383-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nurafshon shahar hokimining 2018-yil 25-maydagi 266-sonli qarori bilan Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga Nurafshon shahar, Qumariq MFY, Sada ko‘chasidan shahar zahirasiidagi 21,0 gektar yer maydonida obyektlarni loyihalashtirishga va qurishga ruxsat berilganligi hamda ushbu qarorning 1-2-bandlariga Nurafshon shahar hokimining 2019-yil 16-sentabrdagi 1011-sonli qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Nurafshon shahar hokimining 2019-yil 16-sentabrdagi 1011-sonli qarorining 2-bandi 2-xatboshisiga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

- Nurafshon shahar, Qumariq MFY, Sada ko‘chasidan shahar zahirasiidagi 21,0 gektar yer maydoni Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin hamda 21,0 gektar yer maydonining 3,0 gektar qismida ko‘p qavatli xizmat uylari, 3,4 gektar qismida Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish bo‘limi bino va inshootlari, 2,2 gektar qismida Patrul post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasi bino va inshootlari, 2,4 gektar qismida Yo‘l patrul xizmati

boshqarmasi bino va inshootlari, 3,1 gektar Kadrlar boshqarmasining Kasbiy tayyorgarlikning tashkillashtirish bo'limiga qarashli sport kompleksi bino va inshootlari, 1,0 gektar qismida Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi bino va inshootlari, 1,2 gektar qismida Sinov muddati bino va inshootlari, 1,6 gektar qismida Reabilitatsiya markazi bino va inshootlari hamda qolgan 3,1 gektar qismida ichki yo'llar va obodonlashtirish ishlari o'rni etib belgilansin.

4. Nurafshon shahar hokimining 2018-yil 25-maydagi 266-sonli qarorining 3-bandi quyidagi taxrirda bayon etilsin:

Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig'i ishlab chiqish uchun buyurtma berish hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

Loyihalash uchun yer osti muxandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarini "ToshkentboshplanLITI" DUK bilan kelishish;

Qurilish ishlarini boshlash bo'yicha Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

Mazkur hududda joylashgan muxandislik tarmoqlarini ko'chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olish vazifalari yuklatilsin.

5. Qarorlarning qolgan qismlari o'zgartirishsiz qoldirilsin.

6. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) mazkur qarorga muvofiq viloyat yer fondiga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

7. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (E.Po'latov)ga qurilish loyiha hujjatarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari Sh. Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev